



Bolajonlar! Dil rubobin,
Sizlar uchun sozlaganman.
Qudrat Hikmat aytgandayin,
«Har maqomda» yozmaganman.
Yengil mavzu ilinjida,
So'z gavharin qazmaganman.
Qalamdayin taroshlanib,
Behudaga ozmaganman.
Elga uchib ketgani yo'q.
Jonni fido aylaganim,
Qirq yilkim, o'shal sozga,
Yurak qo'rin joylaganim.
Bugun esa qo'lingizda,
Topinganim – saylaganim.





QO'SH QANOT

*Olmos mening yuragim,
Tolmas mening yuragim.
Kim aytadi she'rimda
Qolmas mening yuragim...*

Atoqli shoir Quadrat Hikmatning mazkur satrlari barcha bolalar ijodkorlari nomidan aytilgan, desak ham bo'ladi. Agar tasavvurimizdagi adabiyot maydoni yoinki adabiyot xazinasida joy taqsimlanadigan bo'lsa, shubhasiz, eng ko'rkam joy, eng yuqori martaba bolalar adabiyotiga ajratiladi. Bunday deyishimizga asoslar bor. Birinchidan, bolalar uchun ma'qul tarzda yozish eng og'ir yumushlardan hisoblanadi. «Aldagani bola yaxshi» deyilmish maqol uyda yoki bozorda haqiqatdir, biroq adabiyotga mutlaqo xos emasdir. «Bolalar uchun yozish oson» deguvchilar qattiq yanglishadilar. To'g'ri, bolalarga atab tikilmish ko'ylaklar orasida bir yengi uzun, biri kalta beo'xshov liboslarni uchratganimizdek, asarlar orasida ham noboplariga ko'zimiz tushadi. Bundaylarni birov badiiy asar safiga qo'shmaydi. Biz «bolalarga yozish qiyin», deganda chinakam badiiy asarlarni nazarda tutyapmiz. Hazrat Alisher Navoiy zamonidan to bugungi kunimizgacha ulug'larning bolalar uchun yozgan asarlarini eslaylik. Kattalar uchun beqiyos asarlar yozgan buyuk yozuvchilar bolalarni ham esdan chiqarmaganlar. Ayni chog'da jahon adabiyoti, xususan o'zbek adabiyoti tarixida faqat bolalar uchun ijod qilgan ulug'lar ham bor.

Bolalar adabiyotiga yuqori martaba berilishining yana bir asosiy sabablaridan biri — bu adabiyot jamiyat kelajagini belgilovchi yosh avlodni tarbiyalaydi, ularni fikrlashga, dunyoni anglashga o'rgatadi. Ta'bir joiz bo'lsa, kattalar adabiyotining o'quvchisini, kitob muhibbini aynan bolalar adabiyoti tarbiyalab beradi. Agar bolaning qo'lga tushgan birinchi kitob xom-xatala bo'lsa, unda adabiyotga bo'lgan qiziqish cho'g'i o'chishi mumkin, aksincha bo'lsa, bu cho'g' alanga olishi tayin. Demak, bolalar adabiyotida tarbiyachilik mas'uliyati ham mavjud ekan.



Yigirmanchi asrda o'zbek bolalar adibiyoti Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Usmon Nosir, Oybek, G'afur G'ulom, Zafar Diyor, Quddus Muhammadiy, Hakim Nazir, Shukur Sa'dulla, Qudrat Hikmat, Yusuf Shomansur kabi qalam ahlining asarlari bilan g'oyat boyidi. O'tgan asrning oltmishinchi yillaridan bolalar adabiyotida yangi nomlar paydo bo'ldi. Tursunboy Adashboyevning matbuotda e'lon qilinaётgan she'rlari ustozlar diqqatini tortdi. Ustoz Qudrat Hikmat bilan shogird Tursunboy Adashboyevni bir-biriga yaqinlashtirgan narsa ham aynan bolalarga yozilgan she'rlar edi. Shogirdga ustozning ikki benazir fazilati meros bo'lib qoldi. Biri — bolalar adabiyotiga sodiqlik, fidoyilik, ikkinchisi — yosh ijodkorlarga mehribonlik. Qudrat akaning yoshlarga mehribonliklariga o'zim guvoh bo'lganman. Bolalik chog'larimda, Qudrat aka boshqargan adabiyot to'garagiga qatnashar edim. To'garakda katta, taniqli shoir, hali bola, havaskor shoircha degan tushuncha yo'q edi. Qudrat aka biz — bolalar bilan adabiyot xususida gaplashganlarida, bizlarning mashqlarimizni eshitganlarida bola kabi quvnab ketardilar. Arzimas satr yozgan bo'lsak ham maqtardilar, ko'nglimizni sovutmas edilar. Qudrat aka vafot etganlaridan bir necha yil o'tib O'sh shahrida Tursunboy aka Adashboyev bilan tanishdim. Birinchi uchrashuvdayoq men Qudrat Hikmatni ko'rgandek bo'ldim. O'sha quvnoqlik, o'sha mehribonlik, ayni damda talabchanlik... Keyinroq bilsam, Tursunboy aka Qudrat aka bilan yaqin bo'lgan ekanlik. Tahsinga va o'rnakka loyiq yeri shundaki, Tursunboy aka hozirgacha ustozning xonadonlarini ziyorat qilib turadilar.

Bolalar adabiyotiga sadoqat bilan xizmat qilayotganlariga qirq besh yildan oshibdi.

Tursunboy aka O'shda yashayotgan kezlari Toshkentga sira yolg'iz kelmas edilar. Albatta yonlarida bir yoki ikki yosh ijodkor bo'lardi. Yoshlarni turli nashriyotlar, gazeta yoki jurnal idoralariga boshlab borib, tanishtirardilar. O'shlik ijodkorlarning dastlabki kitoblari aynan shu mehribonlik mevasi deyishimiz mumkin. Buni ustozning haqqini o'ziga xos ravishda ado etish, desak ham bo'ladi.

Tursunboy Adashboyev va u kishining tengdoshlari bolalikning shirin daqiqalaridan benasib qolishgan. Ularning bolaliklari Ikkinchi jahon urushi yillariga to'g'ri



kelgan. Daladagi og'ir mehnat, maktabdagi og'ir sharoitlarda o'qib, bilim olish — ularning bolalik xotiralaridir.

*Yorilgan tovonimga
Onam piyozdoq surib...
... Bezgak xuruj qilganda
Ko'kka chiqib nolishim,
Tol bargiga ko'mishsa,
Beda bo'lgan bolishim...
...Tilardingiz onajon
Ulkan bardosh va to'zim.*

Urush davridagi bolalikning og'ir kunlari bayoni bugun ertakka o'xshab tuyuladi. Hozir saroymonand uylar qurilayotgan damlarda tomdan chakka o'tish haqida gapirilsa ko'pchilik ishonmas edi. Holbuki:

*Qirq birinchi yilning bahori
Jonimizdan to'yirdi chakka.
«Jang» qilamiz uyning ichida
Tomchi bilan yakkama-yakka.*

Bolalarning non tanlab xarxasha qilishlari, sal suvi qochgan nonning tashlab yuborilishi, isrof qilinishiga ko'p guvoh bo'lamiz. Bu holat haqida achinib-achinib gapiramiz. Tursunboy Adashboyev esa bu noxush holatni she'rga ko'chirib, o'quvchi xayolini yana urushning og'ir kunlariga tortadilar:

*Suli asli otning yemi,
Ishlatilmas bo'lakka...*

Ha, shunday. Ammo qahatchilik yillarida hatto sulidan ham non yopib yeyilgan. Qaynoq suvga qoqi solinib «olma choy», «sabzi choy»lar damlab ichilgan. Bir burda non esa arzanda...

*Nabiramning non tanlashi,
Malol kelgach, so'nggi dam,
Bolalikdan ushbu lavha
O'tdi ko'zim o'ngidan...*

Tursunboy Adashboyev tug'ilib voyaga yetgan joy Safedbulon deb ataladi. Bu qishloq Namangan va O'sh viloyatlarining bir-biriga tutash qismida joylashgan. Ijodkorga uning go'zal tabiati, shirinso'z, mehr-oqibatli

odamlari ilhom beradi, deyilsa yanglilmas. Tursunboy akaning she'rlari, dostonlarida tabiat manzaralarini ko'p uchratamiz. Zero, bolalar adabiyotining muhim vazifalaridan biri — farzandlarni tabiat go'zalliklarini his qila olish va seva olishga, qadrlashga o'rgatishdir.

*Hoy chechak,
Boychechak.
Yashnab ketdi qir tagi
Quyoshmisan qirdagi?
— Biz oftobning parchasi,
Ochib yerning darchasin,
Shu tuproqqa boylandik,
Boychechakka aylandik.
Bahordan elchi — chechak,
Rahmat senga, Boychechak.*

Bolalar adabiyotiga nazar tashlasak, bahor manzarasini tasvirlovchi satrlarni ko'p uchratamiz. Nima uchun shunday ekan? Ehtimol, umrning bolalik fasli ayni bahorga o'xshaganidandir?

*Qoyalar qilar xitob: — Bu fasl noyob kitob,
Hali tugal o'qilmagan, o'qilmagan...*

Bola yoshida hali kishi bu «noyob kitob»ni o'zi mustaqil ravishda o'qiy olmaydi, o'qisa-da, anglay olmaydi. Bu faslda «yomg'irning yerni iydırishi, yashil chakmon kiydirishi» bola uchun ulug' mo'jiza bo'lib tuyuladi.

*Bahor ko'ylak kiydirdi,
Ko'k egniga bulutdan...*

Tabiat mo'jizalarini hayrat bilan kuzata olish ham inson zotiga berilgan ulug' ne'mat. Tabiatni seva olgan odam bolasi esa baxtlidir. Tabiat go'zalligidan zavq ola bilgan kishi ko'nglida zulmga o'rin yo'q. Tabiatni seva olish — shu tabiatning bir zarrasi bo'lmish ODAMni sevish demak. Va bu zarur fazilat bolaning musaffo qalbida xuddi bahordagi chechak kabi yuz ochadi. Biz — ota-onalar, tirikchilik tashvishi bilan bo'lib bu tarbiyaga uncha ahamiyat bermaymiz. «Nega yomg'ir yog'adi?», «Nega daraxt gullaydi?», «Nega momaqaldiroq guldiraydi?» kabi savollar selidan yengil-yelpi, ba'zan noto'g'ri, noaniq



javoblar bilan qutulmoqchi bo'lamiz. Ana shunda farzandimizga sodiq va maslahatgo'y do'st — kitob yordamga keladi.

*Chaqmoq ko'kda yong'oq chaqdi,
Qizg'aldoqlar selda oqdi.
Quyosh yana kulib boqdi
Bahor kelgach...*

Afsus shuki, barcha ham tabiatning maftunkor go'zalligini ko'ravermaydi. Inson bolasiga xos «loqaydlik» deyilmish illat mavjudki, agar bu xastalik bolalik chog'larida muolaja etilmasa keyinchalik boshga ko'p balolar yog'ilishiga sabab bo'ladi. «...Laylak bezib ketgan, loqaydlikni sezib ketgan» ekan, buning oqibatini o'ylash kerakmikin...

Bola ulg'ayish chog'ida dastlab ota-onasini, buva-buvisini, aka-opalarini va boshqa qarindoshlarini taniy boradi. Bular tabiiy jarayon. Ijtimoiy jihatdan olib qarasak, Vatanni tanimoqlikdagi dastlabki atak-chechak qadamlarga o'xshatish mumkin. Ota-onani tanimoqlik bilan Vatanni tanimoqlik orasida yaqinlik bor. Ota-onani sevmagan, qadrlamagan kishi Vatanning ham qadriga yetmaydi. «Vatanni sevmak» tarbiyasi esa ona suti bilan qalbgaga singdirilishi kerak. Ona allalarida Vatanni ulug'lovchi satrlarning mavjudligi bejiz emasdir. Shunga ko'ra hech bir ijodkor bu mavzuni chetlab o'tmaydi. Xususan, Tursunboy Adashboyevning asarlarida bunday satrlarni ko'p uchratamiz. Uning tabiat tasvirlari ham aynan shu maqsadlarga xizmat qiladi. «Tabiati go'zal Vatanni seving va bu go'zallikni asrang!» — ijodkor asarlari qon-qoniga singgan g'oyalardan biri shudir.

*Bobolarning qon va teri
tomgan tuproq...
...Qotilni ham, botirni ham
sukut saqlab,
ehtiyotlab o'z bag'riga
olgan tuproq...
...Ajdodlardan meros bo'lib
qolgan tuproq...*

Merosni esa avaylab-asrash kerak. Sir emaski, har qanday mamlakat kelajagining muhim omillaridan biri — farzandlarni aynan shu ruhda tarbiyalamoq. Agar kishi qadriyat



nima, u qanday avaylab-asralishi kerak, ma'naviyat nima, u qanday boyitilishi shart, degan savollariga bolaligida javob topolmasa, yoshi o'tgandan keyin bu fazilatlarga erishmog'i juda mushkul. Dunyo bolalar adabiyotini kuzatsak, shu mavzuga e'tibor kuchli ekanini ko'ramiz. Ne shodki, o'zbek bolalar adabiyoti ham bundan mustasno emas. Tursunboy Adashboyevning «Yassaviy zuryodlari», «Qismat», «Oltin yolli tulpor», «Burgutning o'limi» kabi asarlar bu mavzuni boyitishga ulkan hissa qo'shadi.

Bolalar tarbiyasiga oid gaplar shundayligicha, ochiq-oydin holda bayon etilsa ta'sirchan bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun ham bolalar shoirlari voqeani jonivorlar hayotiga ko'chiradilar. Chippolino yoki Buratino, Doktor Voyjonim yoki «Etik kiygan mushuk janoblari» haqidagi asarlar shuning uchun ham ko'p yillardan beri yashab kelyapti. Ana shu go'zal an'ananing davomchisi-sifatida Tursunboy Adashboyev ajoyib asarlar yaratdilar.

Bilamizki, hayotda do'st tanlash oson ish emas. Bu haqda donolar ko'p ibratlarni aytib ketganlar. Afsuslarkim, hayotda o'rgimchak singari mehribon «do'st»lar ham mavjud. Buni biz shoirning she'rida uchratamiz:

*«Qani yur, — deya uy tomon
boshladi.*

*So'ng «mehmon»ni shiftga
Bog'lab tashladi.*

Yoki birovning uyiga kirib olish — zo'ravonlikning oqibati nima bo'lishini qaldirg'ochlar ayon qilib berdilar.

*Qaldirg'ochlar ishni boshlab,
Loyni chilab, qo'shib somon —
Eshik og'zin berkitdilar,
Oqibati bo'ldi yomon.*

Yoki chaqimchining qanday jazo olajagini baxil chumchuq voqeasidan, tadbirkorlikni jo'janing harakatidan bilish ham mumkin. Maqtancholikni esa chumoli polvonga chiqargan:

*Oramizda
Qo'rqqoqlar ko'p,
O'rnak olsa
Bo'lar mendan,
Suzib o'tdim
Okeandan.*



Yoki madaniy turmushni oshirmoq masalasini yechish ham osonmas. Bu masalada qushlar ko'p urindilar:

*Laylakka rahmat, chunki
Undan ko'plar cho'chirdi.
Chinor, tutdan inini
Simyog'ochga ko'chirdi...
...Masalan qaldirg'ochni
Boyo'g'li ko'p urishgan.
Voz kechmaydi negadir
Guvalak uy qurishdan.*

Tursunboy Adashboyevning ijodi bilan tanishgan kishi bir narsaga amin bo'ladi: bu asarlar bolalar ham, kattalar ham baravar o'qiydigan ibrat kitobidir.

Bir necha yil muqaddam «Cho'lpon» nashriyoti «Sichqonning orzusi» degan mo'jaz kitobchani nashr etdi. Tursunboy Adashboyev dunyo bolalar she'riyatida sichqon haqida yaratilgan ko'plab she'rlarni tarjima qilib shirintoylarga taqdim etganlar. Mazkur kitobcha orqali bolajonlar «yaxshi nima-yu, yomon nima?» degan masalaga javob olishlari mumkin. Biz kitobchanning dunyoga kelishdagi shoir va tarjimonning fidoyiligini ta'kid etmasak bo'lmas. Chunki aynan shu ishlarida ham ustoz Quadrat Hikmatning nafaslarini sezdik. Quadrat aka nashriyotda ishlab yurgan kezlari xolis, beminnat xizmat qilib berardilar. Adabiyot to'garaklariga qatnashuvchi bolalarning ilk mashqlarini to'plab, tahrir qilib nashr etganlarini hali ko'pchilik unutgani yo'qdir. «Sichqonning orzusi» ham shu tarzda yuzaga keldi. Shoir to'plovchi va tarjimon sifatida qalam haqi olmay bolalar adabiyotiga xolis xizmat qilib berdilar. Undan tashqari o'nlab ijodkorlarning she'rlari ham beminnat tahrirdan chiqarildi.

Bolalar ijodkorlariga xos bir fazilat bor: hujjat bo'yicha yosh ulg'ayib boraveradi-yu, ammo qalbi bolaligicha qolaveradi. Tursunboy Adashboyev ham shundaylar. Chunki... o'zlari yozganlaridek:

*Chunki pok niyat bilan
Oftobni qarshilaydi.
Ko'p qatori eliga
Faqat tinchlik tilaydi.*

Tohir MALIK.



Ona Vatan,
Durdona Vatan!
Kindik qonim to'kilgan go'sha —
Menga Ka'ba,
Yagona Vatan!
Bobolardan merossan — qadim,
Bag'ishlovni Senga atadim.



QIYOSI YO'Q

Sen tug'ilgan,
Qutlug' xona.
Aziz diyor,
Pok ostona.
So'lim o'lka,
Kesh, Farg'ona
Qadim Urganch.
Shu durdona
Ko'rkam Toshkent,
Asal-qandim.
O'sh, Buxoro,
Samarqandim.
Qiyosi yo'q,
Bu yagona.
Sen-u menga,
Vatan — Ona.
Shunday go'zal
Ulug' yurtkim,
Tuprog'ini
Ko'zga surtgin.



TUPROQ

Ajdodlardan meros bo'lib,
Qolgan tuproq.
Bobolarning qon va teri
Tomgan tuproq.
Qizg'aldoqlar ochilganda,
Qilmay kanda,
Qir, adirlar gulxan bo'lib
Yongan tuproq.
To'kin-sochin dasturxonni,
Solgan tuproq.
Dori-darmon, sinovlardan,
Tolgan tuproq.
Qotilni ham, botirni ham
Sukut saqlab,
Ehtiyotlab, o'z bag'riga
Olgan tuproq.
Bobolarning qon va teri,
Tomgan tuproq.



SOG'INCH

Kuni bilan,
Tuni bilan
Yomg'ir ezib yog'adi.
Bulutlarni tabiat,
Erinmasdan sog'adi.
Ko'cha-ko'ylar yaltirar,
Tuxumdayin archilib.
Ko'kning tubi teshilganmi?
Tomchi tushar yanchilib.
Qo'ldan tushmas soyabon,
Ko'targanim-ko'targan.
Ona yurt — oftobining,
Chetda qadri o'tarkan.



ONA TILIM

Alla bo'lib jaranglagan,
Ona tilim — jon-u dilim.
Unga axir payvastadir,
Qadr-u qimmat, mehr bilim.
Buyuk Temur jahon bo'ylab,
Dovrug'ini solgan tilim.
Mir Alisher bobomlardan,
Meros bo'lib qolgan tilim.
Bobur Mirzo she'rlaridan,
Rang va ohang olgan tilim.
Shunday tildan tonar bo'lsam,
Yoki o'gay sanar bo'lsam,
Qiyma-qiyma bo'lsin tilim,
Ona tilim — jon-u dilim.



ZAR UQALI

Mustaqillik — nonday aziz,
Mo'tabardir, buyukdir.
Bobosi ham irim bilan,
Muqaddas deb qo'yibdir.

Paxtaday oq, sutdayin pok,
Imondayin u toza.
Begardlikka qiyos qilsak,
Bolakaylar andoza.

Ko'k beg'ubor tovlanadi —
Yetti rangli kamalak.
Xumo qushi qo'ndi boshga,
Zar uqali jamalak.



QAROG'IM O'SH

Qayda yurmay, qayon turmay,
Nigohim uzra paydosan.
Baroko'hsan, dilbar, sho'xsan,
Hazin Oqbura daryosan —
Qarog'im O'sh, charog'im O'sh!
Charos qori, Qambarniso,
Samarbon-u, Huvaydosan.
Shoir Mahjur kabi sodiq
Bir umr oshiq-u shaydosan.
Bobur Mirzo tavof qilgan,
G'aroyib, qutlug' ma'vosan —
Qarog'im O'sh, charog'im O'sh!
Aziz shahrim, laziz nahrin,
Sabab, taxti Sulaymonsan.
O'g'ling Habib Abdulloday,
Arzir mehring uchun yonsam,
Qarog'im O'sh, charog'im O'sh!
Sen — Ibrohim Hamroboyev,
O'zing Izzatli Sultonsan.
Ta'rifingni yozar bo'lsam,
Qaynagan chashma, vulqonsan!
Qarog'im O'sh, charog'im O'sh!
Sen — Shavkatning hasrat, dardi,
Yurakdan chiqqan ohsan.
Ikki elning onaxoni —
Qurmonjonsan — Dodhohsan.
Qarog'im O'sh, charog'im O'sh!

ГИБ. № 323873
ИИБ. №



OSMONI KENGROQ

Chorak asr shahri O'shdaman,
Oqburadek¹ oqar yil, oylar.
Qayta qurdik Bobur hujrasin,
Va tiklandi ko'rkam saroylar.

Chorak asr shahri O'shdaman,
Uning mehri qalbimga jodir.
Lol qolardi hozir ko'rsa gar,
Toqqa chiqmay hazrati Bobur.


Huvaydoning nazari tushgan,
Seni Vatan aylagan Bonu.
Ayri tushib Andijonidan,
Shoir Mahjur kuylagan yonib.

Do'stim, nahot Baroko'h² tog'in,
Taqdirimdan ayro ko'rayman.
Shu yurtdagi buyuklar haqqi,
Men ulardan madad so'rayman.

Bag'rim butun, do'stlarim bisyor,
Kamyob O'shday xushhavo joylar.
Vafoli yor, o'g'il-qiz topdim,
Oqburaday oqar yil, oylar.

Chorak asr shahri O'shdaman,
Xizmatchilik, iloj yo'q, netay?
Rostin aytsam, osmoni kengroq,
Qishlog'imdan o'rgilib ketay...

¹ O'sh shahridan oqib o'tadigan daryo.
² Baroko'h - Go'zal Sulaymon tog'i.



Mayna, bulbul.
Kuylar shitob.
Har ohangda
Shunday xitob;
– O'rmon, tog'lar,
Noyob kitob
Hali tugal,
O'qilmagan,
Mevalari
Cho'qilmagan...



TURNALAR

Uchburchakli xat misol :
Parvoz tar turnalar.
Arg'imchog'in ne uchun,
Uzmay ketar turnalar?

— «Arg'amchiga qil quvvat»
Eldan qolgan naqlidir.
Uka, bilsang turnalar,
Ana shunday ahildir.



ONAM YOPGAN PATIRDEK

Bugun yana qo'limda,
Otamdan qolgan chalg'i.
Gul to'shalar yo'limga,
Ishlayman boshni tang'ib.

Yalpiz hidi atirdek,
Dimog'imga urilar.
Onam yopgan patirdek,
Quyosh tog'dan ko'rinar.



OLMOS QALAM

Qoldi birdan guldirab
Ko'kda momoguldirak.
Ona tovuq jo'jalarin,
Boshlab qochdi chuldirab.

Yomg'ir yerni iydinar,
Yashil chakmon kiydirar.
Eski tandir ostida
Qora kuchuk dildirar.

Yashin ko'kning ohimi?
Chaqmoq gohi-gohimi
Chizar olmos qalamda,
Nurdan kiyik shoxini.





BAHOR KELGACH

Qish qorini supurdi,
Quyosh nurin ufurdi,
Yalpiz hidi gupurdi,
Bahor kelgach.

Chaqmoq ko'kda yong'oq chaqdi,
Qizg'aldoqlar selda oqdi.
Quyosh yana kulib boqdi
Bahor kelgach.

Qo'ziqorin terdik tog'da,
Odil bormay qoldi dog'da,
Biz qovurib yedik yog'da
Bahor kelgach.

Yalangoyoq qirda chopdik,
Savat-savat «jag'-jag'» topdik,
Ikki tandir somsa yopdik,
Bahor kelgach.



BOYCHECHAK

— Hoy chechak
Boychechak.
Yashnab ketdi qir tagi
Quyoshmisan qirdagi?
Qirdagi.

— Biz oftobning parchasi
Ochib yerning darchasin.
Shu tuproqqa boylandik,
Boychechakka aylandik.

Aylandik.
Bahordan elchi-chechak
Rahmat senga, boychechak.



MUSHAK

Er-u osmon gumburlab,
Tog'-u toshlar yangradi,
Bedov kishnab ulovlar,
O'qtin-o'qtin hangradi.

Sug'ur, jayra ko'p o'tmay,
Archazorga topindi.
Hadiksirab kirpilar,
Otquloqqa yopindi.

Ko'kning olmos qilichi,
Sig'mas edi qiniga.
Toshbaqa-yu shilliqurt
Kirib ketdi iniga.

Kurka qochar lo'killab,
Xo'roz so'l-u sog'imda.
Quyvonboyning labiga,
Uchuq chiqdi chog'imda.

Qoyadagi toshlar ham,
Qulab tushdi guldirab.
— Nima bo'ldi? — deb so'rar,
Moviy buloq chuldirab.

Mayna bilan kakliklar,
O'z holicha bo'zlashar.
Hatto Arslon va Ayiq,
Shivirlashib so'zlashar.

Nima bo'ldi kim aytar?
Bo'ynoq qochar dildirab.
Mushak otar basma-bas,
Ko'kda Momoguldirak.



CHAQMOQ

O'g'lim terar boychechak,
O'yinni ham unutgan.
Bahor esa osmonga,
Ko'ylak tikar bulutdan.

Bir bola tuzoq qo'yib,
Chumchuq ushlar, qush ovlar.
Rahmat aka otini,
O'tga qo'yar tushovlab.

O'g'lim chopar men tomon,
Gul sayrini unutgan.
Bahor ko'ylak kiydirdi,
Ko'k egniga bulutdan.



QIZG'ALDOQLAR QUTLASHAR

Tong oqarib yulduzlar,
Asta o'chib boradi.
Yaylov olis, cho'ponlar,
Toqqa ko'chib boradi.

Irg'ishlaydi sho'x qulun,
Peshonasi qo'ng'ir-oq.
Lo'killaydi bo'taloq,
Bo'ynida jez qo'ng'iroq.

Qizg'aldoqlar qutlashib,
Chalar go'yo miskarnay,
Bobom kelař chakmonni,
Bo'ktargiga qistarmay.

Yaylov bag'rin yashnatdi,
Oq o'tovli ovullar.
Tunlar salqin bu yerda,
Quvray o'tin lovullar.



QALDIRG'OCH

Erta bahor qo'nib olib
Uyimizning shiftiga.
Sayrab qolar, peshxarini —
Ko'targancha kiftida.

So'ng qayrilma qanotida
Keng fazoni qaychilab,
In qurgani kirishadi,
Tumshug'ida loy chiylab.

Serhafsala, ishchanlik,
Shu qushchaga dahldor.
Goho uning inlarin,
Buzadigan bahil bor.





TOLDIBULOQ

To'rg'ay yotar tuxum bosib,
Shuvoq bilan sirlashib.
Qora qo'ng'iz soqqa o'ynab,
Do'ngga turtar tirmashib.

Yumronqoziq serhadik,
Ish bitirar yugurib.
Sug'ur archa ostida,
Turar tasbeh o'girib.

Chigirtkalar qamishdan,
Nay yasaydi — kertadi.
Ko'kandagi biyaga',
So'na dutor chertadi.

Tinmas Toldibuloq ham,
Maynaning zavqi jo'shgan.
Norxol momo yertandirda,
Pishirar singgi po'shkal².

¹ *Ko'kan* — hayvonlar bog'lanadigan joy.

² *Po'shkal* — tog'liklarning taomi.



ASFALTDAGI RASMLAR

Kim tanimas ko'chamizda
Dilshod, Sora, Nasimlarni.
Asfalt yo'lda uymalashib
Chizar turli rasmlarni.
Vaqtinchalik unutishgan
Kitob, ruchka, daftarlarni
Aks etdirar shar ushlagan
Bolalarni, kaparlarni.
Oqshom cho'kib, tun ohista
Qora choyshab yopganida,
Ko'kning momoguldiragi
Bo'z tulporin chopganida,
«Suvda oqib ketmasaydi
Yo'lda qolgan rasmlar», — deb
Dilshod tunda uxlolmasdan
Tashvishlanib chiqdi hadeb.
Eh, xayriyat yomg'ir bu gal
Suratlarni o'chirmabdi.
Mashinalar kaparlarni
Cho'chitmabdi, uchirmabdi.
Tong yorishib, oftob toqqa
Alvon rangdan durra bog'lar.
«Tinchlik», «ona» degan yozuv,
O'tganlarning dilin chog'lar.



OQ BULUT

Oppoq bulut, oq bulut,
Tog' bag'riga og' bulut
«Oq oltin»ni terguncha
Shoshma, ozroq yog' bulut
Oppoq bulut, oq bulut,
Etagingni qoq bulut.
O'z to'pingdan ayrilib,
Qolma tanho, toq bulut.
Paxtadayin oq bulut
Osmonga arqoq bulut
Savacho'p urisa oyim,
Bo'lasan tarqoq bulut
Oppoq bulut, oq bulut,
Tog' bag'riga og' bulut
To terguncha paxtani,
Shoshma, ozroq yog' bulut.



DO'L

Loyxo'raklar loy chuvar,
Atrof ko'm-ko'k lojuvard.
Barra piyoz naychalab
Bamisoli nay chalar.

Binafshalar qisman oq,
Oyim terar «ismaloq».
Birdan bulut qopladi,
Do'l yog'di, shitobladi.

Cho'g' tushganday patakka,
Tovuq qochar katakka.
Maysa chirt-chirt uzildi.
Rayhon behol suzildi.

Do'l hovliqib toshman der,
Muz va qorga boshman der.
Uning bag'ritoshligi,
Hovliqma beboshligi.

Boshiga yetdi, qarang,
Yerga singib yo'q bo'ldi
Quyoshdan qochib arang.



BUG'DOYZORDA

– Nega bug'doy bosh egar? –
Savol berdim dadamga.
– Mehnatini olqishlab,
Ta'zim qilar odamga.
– Tilla rangga ularni,
Kimlar bo'yab ketishgan?
– Qadoq qo'lli dehqonlar
Terlar to'kib ekishgan.
Shuning uchun har boshoq,
Oltin bo'lib yetishgan.



O'N TOVUQQA BERMADIK

Tong otmasdan qiy-qiyolab,
Shovqin soldi baboq xo'roz.
Otam kular, — chipordan ham
Ayrilibmiz, ana xolos.
— Bir haftada besh tovuqni,
Tulki o'lgur qildi g'oyib.
— Xo'rozingni ehtiyot qil,
Tayinlaydi onam koyib.
O'ta makkor, olg'ir ekan,
Laqillatdi bizni ancha.
Bo'sh katakda yolg'iz xo'roz,
Yashar edi mung'aygancha.
Qovun-tarvuz avji pishgan,
Kungaboqar choylab yotar.
«Malish» qo'ylar kavsh qaytarib,
Nimanidir chaynab yotar.
Chirildoqlar gal berishmas,
Qumg'on qaynab toshiqadi.
Sulton dumbul pishirmoqchi,
Tezak qalab oshiqadi.
Toshfonarning hojati yo'q,
Oy shu'lasini mo'l-ko'l yog'ar.
Hakim ushlar buzoqchani,
Oyim esa sigir sog'ar.
Ko'plar bilmas poliz ichra,
Yulduz sanab yotish gashtin.
Otam bizga so'ylab berar,
«Alif Laylo» sarguzashtin...
Yarim kecha sal narida,
Nedir to'q-to'q etib borar.
O'q ariqdan shippa o'tib,
Qo'rqa-pisa ketib borar.
Olib zarang tayog'ini,



Otam kutdi allaqancha
Tulki ekan, xurmachani,
Boshga kiyib ko'targancha
To'q-to'q qilib borar edi,
Sut ichgani tushgan ekan.
Undan boshin chiqarolmay,
Ko'zi sutdan shishgan ekan.
Otam uning terisiga,
Somon tiqib kergani yo'q.
Uy to'riga osib qo'ydik,
O'n tovuqqa bergani yo'q...



FAQAT YOZDA AYTINGLAR

Bahor kelib Sinchalak,
Boshin ho'llab — suv chilab.
Hadeb sochin taraydi,
So'qmoqdagi ko'lmakchani,
Ko'zgu qilib qaraydi.

Ko'rib qolib buni Hakka,
Ig'vo qilib o'zi yakka
Sinchalakning ustidan
Erta-yu kech kulibdi,
«Kal emish» deb yuribdi.

Parvo qilmay Sinchalak,
Tumshug'ida suv chilab.
Har kun sochin taraydi,
So'qmoqdagi ko'lmakchani,
Oynak qilib qaraydi.

Gap tarqalib ketibdi,
Chumchuqqa ham yetibdi.
To'rg'ay qo'shiq bitibdi,
Qushlar uni bilganicha,
Muhokama etibdi.

Buni sezmay Sinchalak,
Bosh uzra suv chilab.
Har kun sochin taraydi,
So'qmoqdagi ko'lmakni,
Ko'zgu qilib qaraydi.

Ig'vo yo'ldan qaytinglar,
Navro'zda nag'ma tinglab,
Qo'shiq kuylar paytinglar,
Kim kalligin Hakkaga
Faqat yozda aytinglar...



CHILLA CHIQIB

Qish ayozi tobida,
Qor erinmay bo'ralar.
Shox-shabba orasidan,
Ovchi sergak mo'ralar.

Eman bargi tovusning,
Quyruq'iday serhasham.
Kiyik yurgan so'qmoqlar,
Qirda yo'l-yo'l beqasam.

Ayiq g'orga yo'l oldi,
Piymasini ivitgan.
Quyvon po'stin tikibdi
O'ziga oq tivitdan.

Yashil taroq archalar
Keng yozib qulochini.
Erinmasdan shamolning,
Tarar paxmoq sochini.



KO'PKARI

Ko'pkariga atalgan chog'i,
Arslonbobning mashhur Chorbog'i,
Tomoshabin uchun qulay, mos,
Qir va adir yapasqi tog'i.

So'qmoq yo'ldan shoshib kelmoqda,
Qari-qartang, yosh-u yalanglar.
Bir yasharlik serka tashlandi
Maydon ichra ana qaranglar.

Avjga minar sur-xo, sur-xolar,
Qilichdayin o'ynar qamchilar.
Tulporlarning yag'rinlaridan,
Sharros-sharros terlar tomchilar.

Ko'pkarida g'aroyib tartib,
Kimki g'irrom bilinib qolar.
Egar og'ib, goh oyog'idan,
Uzangisi ilinib qolar.

Qora bayir uchar quyunday,
Ergash polvon borar taqimlab,
Otni qichar, davra aylanib,
Manzil sari kelgach yaqinlab.

Hakam xolis, sinchilar zukko,
Bedov esa sapchiydi kishnab.
Uloqni u qo'sh qo'llab tashlar,
Chunki olgan qamchini tishlab.

Quvna tutga mingan bolalar,
Ko'pkarining xo'p zavqi bor-da.
Ulgurmaytin qarsak chalishga
Guppa-guppa yiqilar qorga...



ILINJ

Bobom ekkan olmurut,
Hovlimizning to'rida.
Yulduz sanab yotibman,
Odmi yog'och so'rida.

Ajab, nokday xinch bel,
Go'yo zo'ldir yombilar,
Barg ostidan mo'ralab,
Ko'zlaringni yondirar.

Bandi mo'rt-da, bu meva,
Tong pallasi to'kilar.
Murodjonning yo'lin poylab,
Onam intiq o'kinar.

Nabiralar sog'inch, i,
Har qadamda bilinib.
Olmurutdan bo'yraga,
Qoqi solar ilinib.

Odmi yog'och so'rida,
Xayollarga botib man,
Xom-xatala shu she'rni,
Qayta ishlab yotibman.